1.4. VOLEYBOLDA – STRATEGIYA VA TAKTIKA

1.4.1. Strategiya va taktika haqida tushuncha

Strategiya – yunoncha so'z bo'lib, aksariyat harbiy sohaga mansub bo'lib qo'shinni belgilangan maqsad sari boshlash, olib borish, unga ustalik bilan erishish san'atini ifodalaydi.

Sport sohasida va aynan voleybolda mazkur atama muayyan sportchi yoki jamoaning tayyorgarlik jarayonini boshqarish hamda uni musobaqalar davomida g'alabaga olib borish san'atini anglatadi.

Strategiya: jamoaning asosiy va o‘rinbosar tarkibini tuzish-jamlash, musobaqani boshqarish usullari, vositalari va shakllarini ishlab chiqish, muayyan uchrashuvning (musobaqaning) taktik rejasini tuzish, bo‘lajak o‘yinining nazariy va amaliy andozasini (nusxasini) qo‘llab ko‘rish hamda o‘tkazilayotgan musobaqalarni atroflicha tahlil qilish kabi tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, strategiyaga raqib jamoasi, uning o‘yinchilari haqida ma’lumotlar yig‘ish, razvedka (ayg‘oqchilik) asosida raqibning butun imkoniyat va xususiyatlarini bilib olish masalalari kiradi. «Taktika» atamasi ham yunoncha so‘z bo‘lib, tom ma’noda «tartibga keltirish» yoki «ma’lum tartibda joylashtirish» tushunchasini anglatadi. «Taktika» so‘zi «strategiya» atamasi kabi harbiy sohaga doir bo‘lib, qo‘shinlarni maqsadga muvofiq tuzish va ularni og‘ir vaziyatlarga qaramasdan g‘alaba cho‘qqisiga yetaklash san’atini nazarda tutadi.

Voleybolda taktika tushunchasi o‘yin vaziyatini e’tiborga olgan holda samarali va maqsadga mos shakl, usul hamda vositalarni qo‘llash asosida g‘alabaga erishish san’atini bildiradi.

«Taktika» – yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida «tartib», «tartiblashtirish» ma’nosini anglatadi.

Voleybolda o‘yin taktikasi deb muayyan jamoaning ikkinchi bir jamoa ustidan yakka, guruh va jamoa harakatlari yordamida g‘alabaga erishish san’atiga aytiladi.

Taktikaning asosiy vazifasi muayyan raqib jamoaga nisbatan mavjud vaziyatga qarab g‘alaba sari qo‘llaniladigan o‘yin vositalari, usullari va shakllarini aniqlab, qo‘llay olishdan iborat.

Taktik kombinatsiya – bu bir o‘yinchiga hujum qilishi uchun qulay sharoit yaratib berishga qaratilgan bir necha o‘yinchining harakat faoliyatidir.

O‘yin intizomini – har bir o‘yinchi faoliyatining jamoa faoliyatiga bo‘ysunishi, bo‘lajak o‘yinda rejalashtirilgan taktik ko‘rsatmalarni amalga oshirish, o‘yin qoidalari va umuminsoniy xislatlarga amal qilish va hokazo.

1.4.2. Zamonaviy voleybolda qo‘llaniladigan atamalar

Birinchi temp atamasi hujum kombinatsiyasini birinchi bo‘lib boshlaydigan o‘yinchiga tegishli bo‘lib, u deyarli «past» va tez uzatiladigan to‘p bilan hujum uyushtiradi.

Ikkinchi temp – kombinatsiyani ikkinchi bo‘lib boshlaydigan o‘yinchi. Bu o‘yinchi hujumni asosan baland uzatiladigan to‘p asosida tashkil etadi.

Bir tempda tashkil etiladigan hujumda bir yo‘la ikki yoki uch o‘yinchi zarba berish uchun bir vaqtda sakraydilar.

«To‘lqin» kombinatsiyasida ikki hujumchi ishtirok etadi. Birinchi hujumchi sakrab, yerga tushayotganda, ikkinchi hujumchi sakrab zarba beradi.

«Eshelon» kombinatsiyasida ikki hujumchi ketma-ket sakraydi, to‘p hujumchilarning qaysi biriga qulay uzatiladigan bo‘lsa, shu hujumchi zarba beradi.

«Krest» kombinatsiyasida ikki hujumchi bir-birining harakat yo‘nalishini kesib, muvofiq uzatilgan to‘pdan muvofiq hujumchi zarba beradi. Shu kombinatsiyani turli shaklda ijro etish mumkin (qayta «Krest», kichik «Krest», katta «Krest»).

Morita fintini birinchi bor 1969-yilda GDRda o‘tkazilgan Jahon Kubogida yapon o‘yinchisi Morita qo‘llagan.

Bu fint birinchi «yolg‘on» sakrashdan so‘ng ikkinchi bor to‘liq sakrab zarba berishdan iborat. Maqsadli – to‘siq qo‘yuvchi raqib o‘yinchi pastga tushayotganda sakrab zarba berish, ya‘ni to‘siqsiz zarba berish bilan ifodalanadi.

Bundan tashqari, ushbu kombinatsiyalarning turli nusxalari va shakllari mavjud. Quyida o‘yin taktikasining tasnifi – turkumlarga bo‘linishi ifodalangan.

Taktikaning yakka, guruh va jamoa shakllari mavjud. Taktikaning usullari o‘yin tizimlaridan va kombinatsiyalardan iborat. Taktikaning vositalariga esa bu o‘yin malaka (priyom)lari va ularni barcha turlari kiradi.

1.4.3. Taktikaning psixofiziologik va strategik mohiyati

Muayyan musobaqalarga mo‘ljallangan taktik yo‘nalish, taktik shakl, usul va vositalar oldindan rejalashtirilgan strategik dasturga bo‘ysinish lozim. Barcha taktik harakatlar taktik bilimlar, fikrlash, vaziyatni to‘g‘ri baholash, maqsadga muvofiq

qaror qabul qilish, jismoniy qobiliyat, texnik mahorat va iroda imkoniyatlariga asoslanishi kerak.

Taktik harakat kibernetika nuqtayi nazaridan murakkab vaziyatda eng samarali qarorni topish va unga munosib harakat qilish bilan bog'liq bo'lgan o'z-o'zini sozlab boshqaruvchi faoliyatni anglatadi.

Taktik harakat MNSning afferent – efferent nerv retseptorlari, tolalari ishtirokida tashqi muhit ta'sirotlarini qabul qilish, xotirada saqlash, tahlil qilish, vaziyatga munosib ravishda qayta ishlab motivizatsiyani qoniqtiruvchi qarorga kelish kabi faoliyatlar bilan bog'liq bo'lgan psixofiziologik jarayondan iboratdir.

Taktik harakatning samarali bo'lishida bosh miya yarim sharlarini vaziyatini oldindan bilish (aks ettirish) qobiliyati alohida o'rin egallaydi. Mazkur qobiliyat musobaqa vaziyatlariga nisbatan to'g'ri qarorga kelish va maqsadga muvofiq taktik harakat qilish samarasini oshirishga imkon yaratadi. Albatta, bunday qobiliyatni takomillashuvi sportchini o'yin tajribasiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun o'quv-mashg'ulotlar jarayonida hali ro'y bermagan vaziyatni oldindan fahmlash, unga mos qarorni tayyorlash va taxminiy harakat rejasini xotirada aks ettirish qobiliyatlarini rivojlantirishga oid mashqlarni tanlash va ulardan unumli foydalanish juda katta ahamiyatga ega. Yuqori darajada takomillashgan mazkur qobiliyat taktik va strategik rejani amalga oshirishda muhim poydevor bo'lib hisoblanadi.

Oldindan fahmlash va vaziyatga munosib harakat qilish qobiliyatini rivojlantirishga oid mashqlarni qo'llashda 3 ta jarayondan iborat faoliyatni bajarish zarur bo'ladi:

1. Musobaqa vaziyatini «hazm» qilish (qabul qilish, fahmlash).
2. Maxsus taktik vazifani fikran bajarish.
3. Taktik vazifani harakat bilan bajarish.

Yuqorida muhokama qilinayotgan taktik va strategiya poydevori bo'lmish psixofiziologik jarayon akademik P.K.Anyuxin (1974) kashf etgan funksional sistema nazariyasi bilan bog'liqdir. Demak, bundan ko'rinib turibdiki, o'yin jarayonida samarali taktikani hamda tayyorgarlik davrida strategik rejani amalga

oshirish maxsus nazariy bilim va amaliy malakalarning yuqori darajada takomillashuvini taqozo etadi.

Jamoa tayyorgarligining umumiy strategiyasi tartib bilan amalga oshiriladigan bir necha tadbirlardan iborat bo‘ladi va quyidagi andoza – tasnif sifatida ifodalanishi mumkin.

Jamoa tayyorgarligining umumiy strategiyasi va taktikasi – strategik ayg‘oqchilar (razvedka) – jamoa tayyorgarligining strategik rejasi – jamoani jamlash va jamlab borish – jamoaning taktik tayyorgarligi o‘quv-trenirovka mashg‘ulotlari, ko‘rik o‘yinlari, tayyorlov musobaqalari, asosiy musobaqalar, moddiy ta‘minot. Tibbiy va pedagogik nazorat – sport bazasi, uskunalar, anjomlar va sport formasi (kiyimi) – shifokor nazorati, taktik tayyorgarlikni test yordamida baholash, tanlangan strategik yo‘nalishning yakuniy natijalarini tahlil qilish.

1.4.4. Strategik reja va sport razvedkasi

Strategiya – ma‘lum tartibda amalga oshiriladigan va mantiqan bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bir qancha masalalarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, strategiya muayyan sport turi bo‘yicha moddiy omil yaratish: zamonaviy sport inshootlarini barpo qilish, uskuna, anjom, sport moslamalari va sport kiyimlari bilan ta‘minlash masalalarini o‘z ichiga oladi.

Strategik reja tayyorgarlikning yo‘nalishi, musobaqalarda ishtirok etish tajribasini o‘rganish, raqib klubi va jamoasi haqida ma‘lumotlar yig‘ish tadbirlari bilan bog‘liqdir. Sportchilarni tayyorlash strategiyasi borasida jamiyatga, sport maktabiga yosh, iste‘dodli bolalarni tanlash va jalb qilish alohida ahamiyatga egadir.

Strategik rejada qo‘yilgan maqsadga yuqori samara bilan erishish, aksariyat strategik razvedkaning natijalariga bog‘liq bo‘ladi.

Strategik razvedka raqib o‘yinchilarning individual jismoniy ruhiy, ijtimoiy, taktik, texnik xususiyatlarini mukammal bilib olishga erishish, raqib jamoasining taktik imkoniyatlarini, uning yutuq va kamchiliklarini, hatto jamoaning mashg‘ulot o‘tkaziladigan inshootlari sharoitini, u yerdagi iqlim va texnik omillarni bilishni taqozo etadi.

Strategik razvedka nafaqat raqib sportchilar haqida, balki jamoa murabbiylari, uqalovchi shifokorlari va rahbarlari haqida keng ma'lumotlarga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Strategik razvedka qanchalik samarali va sifatli tashkil qilinsa, shunchalik sport natijalarini, umuman, sport muvaffaqiyatini oldindan yanada aniqroq rejalashtirish mumkin bo'ladi.

1.4.5. O'yinchining o'yin ixtisosligi va jamoa taktikasini tuzish

Voleybol jamoasi tarkibidagi o'yinchilar musobaqa davomida maydonda joylashishlariga qarab barcha mavjud o'yin funksiyalarini bajaradilar. Shu bilan bir qatorda har bir o'yinchi muayyan o'yin funksiyasiga ixtisoslashgan bo'ladi, ya'ni uni o'ziga xos o'yin «kasbi» bo'ladi. Masalan, asosiy zarba beruvchi, bog'lovchi o'yinchi (to'p uzatuvchi) va hokazo.

O'yinchining o'yin «kasbi» uning jismoniy, morfologik, texnik va taktik imkoniyatlariga qarab yillar davomida shakllanib, borgan sari ixtisoslasha boradi.

Zamonaviy voleybolda o'yinchi o'zining tanlangan (ixtisoslashgan) o'yin «kasbi»ni yuqori saviyada mahorat bilan ijro etish bilan birga, o'zga o'yin funksiyalarini ham maromiga yetkazib bajarishi taqozo etiladi. Demak, yuqori malakali sportchilarni tayyorlashga qaratilgan ko'p yillik o'quv-trenirovka mashg'ulotlarida o'rgatish va takomillashtirilgan o'yin funksiyasi asosida amalga oshiriladi.

Jamoa tarkibini yaratish-jamlash ham mazkur masala bilan chambarchas bog'liqdir. Zamonaviy voleybolda jamoa tarkibi aksariyat 4-2 yoki 5-1 tizimi asosida tuziladi. U 4 ta hujumchi, 2 ta bog'lovchi – to'p uzatuvchi o'yinchilardan iborat bo'ladi. Mazkur o'yinchilar quyidagicha joylashishadi: 4-1, 3-6, 2-5.


4-1 – asosiy hujumchilar, (2 templi hujumchilar); 3-6 – yordamchi hujumchilar, (1 templi hujumchilar); 2-5 – bog'lovchi o'yinchilar. Agar jamoa tarkibi 5-1 tizimi asosida tuzilgan bo'lsa, unda 5 ta hujumchi va 1 ta bog'lovchi o'yinchi maydonda faoliyat ko'rsatishadi.

1.4.6. O'yin faoliyatida sardorning ahamiyati

Voleybol o'yinida barcha sport o'yinlari turlaridagidek murabbiy o'z shogirdlari bilan faqat o'yin oldidan, partiyalar orasida, tanaffus vaqtida qisqa muddatli muloqotda bo'lishlari mumkin. Masalaning mazkur tartibda amalga oshirilishi musobaqa qoidasi bilan belgilangan. Shuning uchun o'yin davomida o'yinchilar faoliyatini boshqarish funksiyasi jamoa sardoriga yuklatiladi.

Sardor murabbiyning o'yinga bergan ko'rsatmasini, taktik va strategik rejasini muayyan o'yin davomida amalga tatbiq qilishi kerak bo'ladi. Ayrim vaqtlarda vaziyatga qarab o'yinning taktik yo'nalishini boshqarish yana sardorga yuklatiladi. Bunda sardor murabbiyning muntazam beriladigan (mumkin bo'lgan vaqtda) qo'shimcha ko'rsatma va yo'riqlariga asoslanadi. Sardorning o'yinchilar bilan bo'ladigan aloqasi, ko'rsatmasi so'z, imo-ishora va boshqa belgilar vositasida amalga oshiriladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, sardorlik funksiyasining sifatli va samarali ijro etilishi ham yaxshi natija berishi aksariyat sardorning nafaqat insoniy obro'siga, balki uning o'yin mahoratiga bog'liqdir. U yuqori malakaga, mahoratga ega bo'lishidan tashqari, o'tkir zehni, zukko, vaziyatni oldindan payqovchi, tez va to'g'ri fikrlovchi bo'lishi lozim. Sardorda oliy insoniy sifatlar mujassamlashgan bo'lishi, tashkilotchilik qobiliyati, yo'l boshchilik san'ati musobaqa jarayonida alohida o'rin egallaydi.



Jamoa sardorlari aksariyat jamoadoshlariga nisbatan yoshi nuqtayi nazaridan kattaroq, tajribaliroq bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Sardorlik «lavozi» voleybolning amaliyoti va nazariyasida ilmiy tomondan puxta o'rganilmagan bo'lib, ilmiy muammo sifatida o'z yechimining tadqiqot asosida hal etilishini kutmoqda. Mazkur «lavozi» mohiyati va mazmunini shakllantirish yoki yuqori mahoratli sardorni tarbiyalash murabbiy-mutaxassislariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

II BOB. TADQIQOTNING VAZIFALARI, USLUBIYATI, PEDAGOGIK TAJRIBANING MAZMUNI VA TASHKIL QILISH TARTIBI

2.1. TADQIQOTNING MAQSADI

Yosh voleybolchilarga to'pni boshqarish taktikasini harakatli o'yinlar yordamida rivojlantirish samaradorligi ilmiy-pedagogik tajriba asosida o'rgatishdan iborat.

2.2. MAQSADGA ERISHISH UCHUN QUYIDAGI VAZIFALAR BELGILAB OLINDI

1. Yosh voleybolchilarda taktik tayyorgarlik darajasini qiyosiy baholash.

2. Taktik tayyorgarlik ko`rsatgichlarini harakatli o`yinlar yordamida shakllantirish imkoniyatlari o`rgatish.

3. Tadqiqot va pedagogik tajriba natijalari asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va yosh voleybolchilarni tayyorlash jarayoniga tadbqiq qilish.

2.3. TADQIQOT USLUBLARI

1. Adabiyotlar tahlili.
2. So`rovnoma.
3. Taktik tayyorgarlik buyicha test mashqlari.

3.1. 3 m masofadan devorga yuqoridan to`p uzatish-soni bo`yicha baholash mezon:

	«5»	«4»	«3»	«2»
11 yosh	4	3	2	1
12 yosh			7	5 3 1

3.2. Basketbol jarima chizig'idan 10 marta savatga, yoki kvadratga, to`p uzatish:

	«5»	«4»	«3»	«2»
11 yosh	5	4	3	2
12 yosh	6	5	4	3

3.3. 3-chi zonadan 4 zonaga uzatilgan to`pni to`g`ri yoo`nalishda zarba berish (10 imkoniyatdan):

	«5»	«4»	«3»	«2»
11 yosh	3	2	1	0
12 yosh	4	3	2	1

3.4. To`p uzatish va zarba berish taktikasi 5-ta malakali voleybolchi-ekspertlar yordamida 10 ballik myozon asosida baholanadi.

2.4. PEDAGOGIK TAJRIBANING MAZMUNI VA O`TKAZISH TARTIBI

Pedagogik tajriba 2014 yil 15 sentyabrdan 2015 yil 30 aprelgacha (8 oy) o`tkazildi. Tadqiqot guruhida 6 ta 11 yoshli, 6 ta 12 yoshli nazorat guruhi va 6 ta 11 yoshli, 6 ta 12 yoshli tadqiqot guruhi kuzatildi.

Nazorat guruhida mashg`ulotlar BO`SM lari uchun mo`ljallangan dasturda berilgan o`kuv rejasi asosida olib borildi (1 bobdagi 2 jadvalga qaralsin).

Tajriba guruhidagi bolalar ushbu o`quv rejasida ko`rsatilgan mashg`ulotlar davomida quyidagi maxsus tanlab olingan harakatli o`yinlarni muntazam bajarib bordilar:

1. «Uzat-o`tir» (1 rasm).

Tayyorgarlik. O`yinchilar teng 2 jamoaga bo`linib, alohida kolonna bo`lib joylashadilar. 2 ta boshlovchi o`yinchi kolonnalarga 2 m oralig`ida qarama-qarshi joylashadilar.


O`yin mazmuni. Murabbiyning signali bilan boshlovchilar to`pni ikki qo`llab yuqoridan kolonnalarga birinchi turgano`yinchilarga uzatadilar. Birinchi turgan o`yinchilar to`pni boshlovchilarga yuqoridan ikki qo`llab (chimasdan) aniq uzatadilar va so`ng o`tiradilar. Keyin 2-chi, 3-chi va hokazo o`yinchilar shu mashqni qaytaradilar. Oxirgi turgan o`yinchi to`pni uzatib utirgandan so`ng, o`yin yana boshidan qaytariladi.


O`yin qoidasi. To`p faqat navbat bilan uzatiladi. Uzatish taktikasi voleybol qoidasi doirasi ijro etiladi.

O`yin 5 marta qaytariladi.

To`pni tushirmasdan boshlovchiga aniq uzatgan birinchi jamoa g`olib deb topiladi.

17- rasm.






2. «To`p uzatish estafetasi» (2-rasm).

Tayyorgarlik. O`yinchilar teng 2 jamoaga bo`linib, alohida 2-ta shirengada 3 m oralig`ida bir-biriga qarama – karshi joylashadi.

18-rasm.




O`yin mazmuni. Murabbiyning signali bilan shirengada birinchi turgan 2 juft o`yinchi oldinga yon tomoni bilan olinga harakatlanib bir-biriga to`p uzatadilar va mashq belgilangan 18 m li sharragacha bajariladi. O`yinchilar marraga yotib kelganidan so`ng, to`p navbatda turgan o`yinchilarning biriga uzatiladi. O`yin shu tarzda 5 marta qaytariladi.

Qaysi jamoa o`yinchisi ko`proq xatoga yo`l qo`ysa, shu jamoa mag`lub deb topiladi.

3. «Turli balandlikda osilgan to`plarga sakrab zarba ber».

O`yin mazmuni: Ishtirokchilar 3-4 metr oralig`ida bir kolonna bo`lib, sekin yuguradilar va har hil balandlikda osilgan to`plarga zarba beradilar.

19-rasm.



III BOB. TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNI TAXLILI

3.1. TAKTIK TAYYORGARLIKNI SHAKLLANTIRISHDA HARAKATLI O`YINLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI VOLEYBOL MURABBIYLARI NIGOHIDA

E`tiboringizga xavola etilayotgan malakaviy bitiruv ishning maqsadi yosh voleybolchilar taktik tayyorgarligini shakllantirishda harakatli o`yinlarning ahamiyatini aniqlash bo`yicha trenerlarning fikrini o`rgatishdan iborat.

Buning uchun o`rta maktab va kolledjlarda voleybol bo`yicha faoliyat ko`rsatayotgan trenerlar fikri o`rganildi.

Ushbu trenerlar 1 jadvalda qayd etilgan 10 savolga javob berishlari kerak edi.

O`tkazilgan savol-javob natijalari shuni ko`rsatdiki, 1 savolga:

«Voleybol taktikasiga o`rgatishda harakatli o`yinlar qo`l keladimi?» - 16 nafar trener «Ha», 7 nafar «Yo`q» va 7 nafar «Bilmayman» - deb javob qaytarishdi.

3-jadval

«Voleybolchilar taktik tayyorgarligini shakllantirishda harakatli o`yinlardan foydalanish samaradorligi voleybol trenerlari nigohida» mavzusi bo`yicha o`tkazilgan

SO`ROVNOMA NATIJALARI n=30

№	Savollar	Javoblar		
		Ha	Yo`q	Bilmayman
1	Voleybol taktikasiga o`rgatishda harakatli o`yinlar ko`l keladimi?	16	7	7
2	Taktik maxoratni shakllantirishda harakatli o`yinlar foydalimi?	8	10	12
3	Taktik tayyorgarlik darajasini oshirishda yuklama nuqtan nazaridan harakatli o`yinlar samarali desa bo`ladimi?	11	9	10

4	Voleybolga o`rgatishda harakatli o`yinlarni moslashtirib qo`llash ma`qulmi?	18	8	4
5	To`p uzatish taktikasiga o`rgatishda qo`llaniiladigan harakatli o`yinlarni bilasizmi?	8	10	12
6	Voleybolchini harakat holatlari va maydon uzra harakatlanishini shakllantiruvchi harakatli o`yinlarni bilasizmi ?	22	5	3
7	To`p kiritish taktikasini shakllantiruvchi harakatli o`yinlarni bilasizmi ?	6	15	9
8	Zarba berish taktikasini shakllantiruvchi harakatli o`yinlarni bilasizmi ?	12	7	11
9	To`siq qo`yish taktikasini shakllantiruvchi harakatli o`yinlarni bilasizmi ?	9	14	7
10	Trenirovka mashg`uloti davomida Siz charchoqni bartaraf etuvchi harakatli o`yinlar dan foydalanasizmi ?	7	17	6
JAMI		117	102	81

2-SAVOLGA – “ Taktik maxoratni shakllantirishda harakatli o`yinlar foydalimi?” – respondent trenerlarning fikri ikkita farq bilan deyarli bir hil darajani tashkil etdi.

“Xa” javobi 8 ovozni, “yo`q” – 10, “bilmayman” – 12 ovozni qayd etdi.

E`tirof etish o`rinliki, trenerlar nigohiga havola etilgan bu ikkita savol o`z mohiyati bilan bir-biridan aytarli katta faqr qilmaydi. Ma`lumki, taktik mahoratni shakllantirish taktik malakalarga o`rgatish orqali amalga oshiriladi. SHunday ekan trenerlarning bu ikki bir-biriga mohiyati bo`yicha uzviy bog`liq savollarga keskin farq bilan javob berishlari harakatli o`yinlarning sport turlariga, jumladan voleybolga o`rgatish jarayonida qo`yilanish imkoniyatlari, ularning samarali ta`siri shu trenerlarning faoliyatidan mustahkam o`rin olmaganligida dalolat beradi.

Voleybol nazariyasi va uslubiyatiga oid ilmiy ma'lumotlarga e'tibor berilsa shu narsa ravshan bo'ladiki trenirovka mashg'uloti jarayonida, jumladan taktik tayyorgarlikni shakllantirishda harakatli o'yinlarlar nafaqat samarali vosita sifatida tan olingan, balki ular ixtisoslashgan standart, katta xajmli yoki katta shiddatli nagruzkalar ta'sirini yongillashtiruvchi vosita bo'lib xizmat qilishi e'tirof etilgan. SHuning uchun mazkur masala buyicha trenerlar fikrini bilish muximligi "Taktik tayyorgarlik darajasini oshirishda yuklama nuqtai nazaridan harakatli o'yinlarlar samarali desam bo'ladimi?" degan savolni o'rtaga tashlash ehtiyojini tug'dirdi. Bu savolga trener – respondentlar qo'yidagiga javob berishdi: "Ha" – 11 ovoz, "Yo'q" – 9 ovoz, "Bilmayman" – javob 10 ovozni tashkil etdi. e'tibor bering, bu savol bo'yicha ham trenerlar fikrida yakdillik yo'q. Demak, so'rovdan ishtirok etgan trenerlar taktik malakalarga o'rgatuvchi maxsus ixtisoslashtirilgan mashqlar nagruzkasi bilan harakatli o'yinlarlar asosida beriladigan nagruzka farqini aniq tasavvur etolmas ekanlar.

"Voleybolga o'rgatishda harakatli o'yinlarni maslashtirib qo'llash ma'qulmi?" degan savolga aksariyat respondentlar "Ha" (18 ovoz) deb javob berishdi. 8 respondent "Yo'q" va 4 respondent "Bilmayman" degan fikrni bildirdi.

"To'p uzatish taktikasiga o'rgatishda qo'llaniladigan harakatli o'yinlarni bilasizmi?" degan savolga trenerlar bir tomonlama aniq ijobiy fikr bildira olishmadi. Bunda "Ha" javobi 8 ovoz, "Yo'q" javobi 10 ovoz va "Bilmayman" javobi 12 ovozni tashkil etdi.

7.8 va 9 savollar yuzasidan berilgan javoblar ham qoniqarli emas (... jadvalga qarang). Faqat bunday savollar ichida 6 savol mustasno. CHunonchi, 6 savol:

"Voleybolchini harakat holatlari va maydon uzra harakatlanishini shakllantiruvchi harakatli o'yinlarni bilasizmi?" – nisbatan ijobiy javoblar yig'indisini ko'rsatdi. Bu savolga 22 nafar respondent "Ha" degan ovoz bildirdi.

Shu bilan bir qatorda trenirovka jarayonida o'ta ahamiyatli o'rin egallovchi "nagruzka, charchash" va "ish qobiliyatini tiklanishi" masalalari haqida trenerlar fikrini bilish shu muamollarga kerakli aniqliklarni kiritish imkoniyatini yaratadi.

Aynan shu maksadda bizning so'rovnomamizda ishtirok etgan trenerlarga shunday savol bilan murojaat etgan edik.

“Trenirovka mashg'uloti davomida Siz charchoqni bartaraf etuvchi harakatli o'yinlarlardan foydalanasizmi?”. Bu savol aksariyat salbiy ovozlarda yig'indisini namoyish etdi, ya'ni trenerlarning 17 nafari “Yo'q” javobini qayd etishdi.

YUqorida qayd etilgan savollarga berilgan javoblar shuni ko'rsatadiki, respondent trenerlarning asosiy qismi o'rgatish va trenirovka jarayonlariga oid muhim va dolzarb masalalarga professional darajada fikr bildirganlar.

Ushbu trenirovkaning ish faoliyati va pedagogik tajribasi taxlil etilganda shu narsa ma'lum bo'ldiki, ularning ko'pchiligi 5,6 hatto 10 yillar davomida o'z malakalarini eshirmagan ekanlar. Lekin shunday bo'lsada sport trenirovkasi jarayonida harakatli o'yinlarning qo'llanilishi, ularning afzalligi va samaradorligi azaldan ilmiy – uslubiy jihatdan isbotlar berilgan.

Demak, bunday ilmiy natijalarni har bir sport turi xususiyatlariga qarab qullash, o'rgatish va trenirovka jarayonlarining samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratishi aniqdir.

3.2. TO'P UZATISH TAKTIKASINI SHAKLLANTIRISHDA HARAKATLI O'YINLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Sport taktikasiga o'rgatish jarayonida taktik mahoratning shakllanishi maslashtirilgan harakatli o'yinlarni qo'llashga bog'liqligi ilmiy adabiyotlarda isbotlangan (32). Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, harakatli o'yinlar nafakat jismoniy sifatlarni shakllantirishi imkoniyatini yaratadi, balki bunday o'yinlar, aniq mo'ljalgacha olish, aniq harakat va diqqat kabi xislatlarni ham samarali rivojlantirishi mumkin ekan.

Voleybol bo'yicha etakchi mutaxassis-olimlar (10, 32) voleybol taktikasiga o'rgatishda shu taktik malakalar harakatiga yaqin bo'lgan harakatli o'yinlarni qo'llash ijobiy natija berishini isbotlab berganlar.

Bizning tadqiqotimizda olingan natijalar ham yuqorida qayd etilgan mutaxassislar fikrlarini ob'ektiv ekanligidan dalolat berdi. CHunanchi, jadvalda ushbu tadqiqot natijalari aks ettirilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tajribadan avval nazorat turuhida 3 metrdan turib 4 m balandda joylashgan (devorda) diametri 30 sm aylana nishonga 10 marta to'pni aniq uzatish 5,2 marta teng bo'ldi.

Tajriba guruhidagi yosh voleybolchilarning ko'rsatgichi ham deyarli shu darajada ekanligi qayd etildi (5,3).

Uzatish taktikasi nazorat guruxida 3,2 tadqiqot guruhida esa bu mezon 3,4 ni tashkil etdi. Demak, tadqiqot boshlanmasdan oldin bolalarning taktik tayyorgarligi deyarli bir xil bo'lgan.

8 oy mobaynida o'tkazilgan pedagogik tajriba o'tkazildi – ya'ni shu muddat davomida nazorat guruhi an'anaviy mazmundagi mashg'ulotlar bilan band bo'lgan, tadqiqot guruhi esa mashg'ulotlar tarkibida to'p uzatish va zarba berish taktikasini shakllantiruvchi harakatli o'yinlarni muntazam bajarib kelishgan.

Ushbu pedagogik tajriba natijalari to'p uzatish aniqligi va uning taktikasiga ham ijobiy ta'sir etganligi ko'zga tashlandi. Jumladan, nazorat guruhida to'p uzatish aniqligi iajribadan avval 5,2 marta teng bo'lsa, taktikasi 3,2 deb baholangan bo'lsa, tajriba muddati tugaganidan so'ng bu ko'rsatgichlar nazorat guruhida to'p uzatish aniqligi 6,3 marta, taktikasi esa 3,3 bahoga loyiq bo'ladi.

Tajriba guruhida esa to'p uzatish aniqligi va uning taktikasi tajribadan avval muvofiq ravishda 5,3 marta va 3,4 bahoga teng bo'lgan bo'lsa, tajriba mashg'ulotlari yakunlarga muddatdan so'ng bu ko'rsatgichlar 7,2 martagacha, taktikasi esa 4,4 bahogacha ortgani qayd etildi.

Basketbol jarima chizig'ida turib 10 marta savatga yoki uning taxtadagi kvadrat nishoniga to'p uzatish aniqligi va taktikasi nazorat guruhida 4,4 marta va 3,4 bahoni tashkil etdi. Tajriba muddatidan so'ng bu ko'rsatgichlar deyarli ko'p o'zgargani yo'q va 5,2 marta hamda 3,4 bahoga loyiq bo'ldi. Ko'rinib turibdiki, to'p uzatish taktikasida hech qanday o'zgarish bo'lmagan.

Tajriba guruhida qayd etilgan ko`rsatgichlar sezilarli darajada organi kuzatildi. Savat yoki kvadratga aniq to`p uzatish 7 marta, uning taktikasi 4,2 debbaholanganligi ko`zga tashlandi.

8 oy davomida o`tkazilgan pedagogiktajriba yakuniy malakaviy ish oliga qo`yilgan birinchi vazifani ijobiy xal etilganligidan darak bermoqda va moslashtirilgan harakatli o`yinlarni to`p uzatish anikligi va uning taktikasiga ijobiy ta`sir etganligini isbotladi. Demak, trenirovka mashg`ulotlarida taktik tayyorgarlikni shakllantirish samaradorligi harakatli o`yinlarga to`g`ridan – to`g`ri bog`liq deyishga asos bor.

3.3. ZARBA BERISH TAKTIKASINI SHAKLLANTIRISHDA HARAKATLI O`YINLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Voleybolda sakrab to`r ustidan zarba berish taktikasi o`rta muraqqab harakat malakalari tarkibiga kirsada, ushbu malakani eng yosh voleybolchi bolalarda dastlab o`rgatish bosqichidan boshlab amalga oshirish barcha mutaxassislar tomonidan tan olingan.

Olimlarning fikriga ko`ra, masalan, 3 zonadan 4 zonaga uzatilgan to`pni to`g`ri zarba berish turli tayyorgarlik va yoshga ega voleybolchilarda turliga bo`lishi mumkin. Ular bu borada o`zlarining test mashqlaridan foydalanishni tavsiya etadilar. Jumladan, 11 yoshli bolalar 4 zonaga uzatilgan to`pni 10 imkoniyatdan 3 ta zarbani to`r ustidan o`tkazsalar «5» baho, 2 ta zarba – «4» baho, 1-ta zarba «3» baho va 0 – «2» baho, 12 yoshli bolalarda 4-ta zarba «5», 3-ta «4», 2-ta «3», 1-ta «2» baho deb belgilab berganlar.

Biz o`z tadqiqotimizda ham aynan shu test mashklaridan foydalandik. .... jadvalda nazorat va tajriba guruhlarida zarba berish bo`yicha utkazilgan test natijalari aks ettirilgan.

Tajribadan avval o`tkazilgan tadqiqot natijalariga ko`ra nazorat guruhidagi bolalarda ham, tajriba guruhidagi bolalarda ham zarba berish ko`rsatgichlari soni

bo'yicha yuqorida qayd etilgan mualliflar ko'rsatgichlaridan farq qilmagani ko'rinib turibdi.

CHunonchi, nazorat guruhida zarba berish soni 2,4 martani, taktikasi esa 3,2 deb baholanganligi kuzatayotgan bo'lsak, bu ko'rsatgichlar tajriba guruhida ham 2,5 va 3,0 deb baholandi.

Demak, o'rtadagi farq deyarli katta emas, balki tajriba guruhidagi bolalarda zarba taktikasi yanada pasroq raqam bilan baholangan. Ammo, pedagogik tajriba yakunida olingan natijalar masalaga yaqqol oydinlik kiritdi va mashg'ulotlar jarayonida ixtisoslashtirilgan harakatlardan foydalanish zarba taktikasini qanchalik samarali shakllantirish mumkin ekanligini namoyish etdi.

Juladan, agar nazorat guruxida zarba berish soni va uning taktikasi hammasi bo'lib muvofiq ravishda 3,2 marta va 3,6 deb baholangan bo'lsa, tajriba guruhida ushbu ko'rsatgichlar tajribadan so'ng 4,8 va 5,8 deb baholandi. Binobarin, pedagogik tajriba davomida mashg'ulotlarda qo'llanilgan harakatli o'yinlar zarba berish soni va taktikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligi isbatlandi. Demak, yosh voleybolchilarni tayyorlashda va xususan sport mahoratini shakllanishida maxsus ixtisoslashtirilgan harakatli o'yinlarni tanlab olish va mashg'ulotlar jarayonida qo'llab borish shu jarayonlarni samarali shakllantirish imkonini berar ekan.

XULOSA VA AMALIY-USLUBIY TAVSIYALAR

1. Tadqiqot ishiga doir ilmiy va uslubiy adabiyotlar tahlil qilinganda shu narsa ayon bo'ldiki, yosh voleybolchilarni tayyorlashda, jumladan ularning taktik – taktik mahoratini shakllantirishda maxsus ixtisoslashtirilgan harakatli o'yinlarning amaliy ahamiyati beqiyosdir.

2. Yosh voleybolchilar taktik tayyorgarligini rivojlantirishda harakatli o'yinlar samaradorligi, ularning ahamiyatini aniqlashga qaratilgan savolnoma natijalariga ko'ra, qatnashchilar – trenerlarning aksariyat qismi taktik tayyorgarlik jarayonida harakatli yoyinlarning ijobiy ahamiyatini to'g'ri baholay olmadilar. Demak, ularning professional faoliyatida harakatli o'yinlardan foydalanish maromida emas va bu masalaga etarliga urg'u berilmasligi kuzatildi.

3. Tadqiqot davomida ishtirok etgan bolalarning taktik tayyorgarli talabga javob bermasligi ko'zga tashlandi.

4. Pedagogik tajriba natijalari yosh voleybolchilar taktik tayyorgarligini shakllantirishda maxsus ixtisoslashtirilgan harakatli o'yinlarning samarali ekanligini msbotladi va qisqa muddat davomida (8 oy) to'p uzatish va zarba berish aniqligi hamda taktikasi qanchalik keskin shakllanishi mumkinliga namoyish etdi.

5. To'pni «Uzat-o'tir», «To'p uzatish estafetasi» va «Turli balandlikda osilgan to'plarga sakrab zarba ber» kabi harakatli o'yinlar yosh voleybolchilar taktik tayyorgarligini oshirishda uta samarali vosita ekanligini isbotlab berdi.

6. YUqorida qayd etilgan maxsus harakatli o'yinlarni voleybolchilar mashg'ulotlariga tadbiq etish ularning taktik tayyorgarligiga ijobiy ta'sir etishga kafolat beradi. Demak yosh voleybolchilarni tayyorlash jarayoni kuzatuv va tadqiqot asosida hamda harakatli o'yinlar ishtirokida tashkil qilinsa taktik mahoratni shakllanishi shunchalik tezroq muddatda va engil amalga oshirilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni «O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish to'g'risida», Toshkent, 24.X.2002.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori «O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida», Toshkent, 30.X.2002.
3. Abdullaev U. «Xalq o'yinlari milliy sport turlarini tiklash va aholini jismoniy tarbiyalashda ulardan keng foydalanish usullari» mavzusiga bag'ishlangan jumhuriyat milliy-amaliy anjumanining tezislari. 19-20 aprel' 1991 yil 1-qism, B-12-15.
4. Abdumalikov R., Abdullaev A. Xalq milliy o'yinlari mazmunida ma'aviyat asoslari. T.: 1995. – B.14.
5. Ayrapet'yants L.R., Godik M.A. Sportivnie igri. Toshkent, Ibn Sino, 1991.
6. Azimov I.G. Jismoniy tarbiyaning yosh fiziologiyasi. T.: 1994. 72-73 b.
7. Azimov I.G', Sobitov SH. Sport fiziologiyasi, Darslik, T.: 1993.- 228 b.
8. Arshavskiy M.V. i dr. Vliyaniya zanyatiy fizicheskoy kul'turoy i sportom na zdorov'ya uchashixsya. //Sov. Pedagogika. 1967.№3.- S.16-22.
9. Arshavskiy M.V. i dr. Vliyaniya zanyatiy fizicheskoy kul'turoy i sportom na zdorov'ya uchashixsya. //Sov. Pedagogika. 1967.№3.- S.16-22.
10. Arshavskiy I.A. Ocherki po vozrastnoy fiziologii. – M.: Meditsina. 1967.- 457s.
11. Ataev A.K. razvitie bistroti, lovkosti i sili u detey. Tashkent, Ukituvchi, 1973. - 120s.
12. Bagen M.M. Obuchenie dvigatel'nim deystviyam. M.:Fizkul'tura i sport. 1985.-192 b.
13. Belovusova V.V., Reshetin' I.N. Pedagogika. T.: O'qituvchi. 1993. 67-68 b.
14. Berishteyn N.A. O postroenie dvijeniya. M: Meditsina, 1947 b.

15. Buylin YU.F., Portnix YU.I. Mini-basketbol. Moskva. «Prosveshenie». 1976.
16. Bril' M.S. opit i prespektivi primeneniya podvijnix igr v nachal'noy podgotovke yunnix sportsmenov. Sb.Resp.nauchn. metod. Konf. po problemam ispol'zovanie podvijnix igr v fizicheskoe vospitanie shkol'nikov. Minsk, 1972,-B.75-78.
17. Bril' M.S. Otbor v sportivnix igrax. Moskva, FiS, 1987.
18. Bileeva L., Korotkov I., YAkolev V. Podvijnie igri. /ucheb. posobie dlya institutov fizicheskoy kul'turi. - M.:Fizkul'tura i sport, 1974.-208 b.
19. Bileev L., YAkovlev V. Podvijnie igri (uchebnik dlya fizkul'turnix vuzov. M.: Fizkul'tura i sport), 1965 g., 166 s.
20. Bileev L., Korotkov I., YAkovlev V. Podvijnie igri. (uchebnie posobie dlya institutov fizicheskoy kul'turi). M.: Fizkul'tura i sport, 1974 g., 208 s.
21. Volkov V.M., Filin V.P. Sportivniy otbor. Moskva, FiS., 1983.
22. Verxoshanskiy YU.V. Osnovi spetsial'noy fizicheskoy podgotovki sportsmenov. Moskva, FiS., 1988.
23. Ganieva F.V. Jamoa harakatlarini o`rgatishda qo`llaniladigan mashqlar. Uslubiy tavsiyanoma. TJTI nashriyoti, 1997.
24. Godik M.A. Kontrol' trenirovochnix i sorevnovatel'nix nagruzok. Moskva, FiS., 1980.
25. Gudze P.Z. O vozrastnix osobennostyax morfologicheskix izmeneniy v skletnix mishtsax i miokarde v usloviyax primeneniya bol'shix fizicheskix nagruzok. /materiali 6-y nauch.konf.po vozrastnoy morfologii, fiziologii i bioximii. – M.:1963.- S.50-51.
26. Zatsiorskiy V.M. Sportivnaya metrologiya, M., 1982 g., 256 s.
27. Zatsiorskiy V.M. Osnova sportivnoy metrologii, M., FiS, 1979 g., 152 s.
28. Zimkin A.V. Fiziologicheskaya priroda formirovaniya dvigatel'nix navikov, V kn. «Fiziologiya», Minsk, 1974 g., 126-154 s.

29. Ismatullaev X.A., Ganieva F.V. Metodi i sredstva vospitaniya fizicheskix kachestv basketbolistov. Metodicheskie rekomendatsii. Tashkent, izd.otd.UzGosIFK, 1996.
30. Lidberg F. Basketbol. Igra i obuchenie. Moskva. FiS, 1971.
31. Mayfat S.P. Sravnitel'noe znachenie pasportnogo vozrasta i dlini tela dlya otsenki rezul'tatov kontrol'nix ispitaniy pri otbore v SDYUSSH. Jurnal TiPFK, №12,1981.
32. Matveev L.P. Osnovi obshey teorii sporta i sistemi podgotovki sportsmenov. Kiev, 1999.
33. Matveev L.P., Mel'nikov S.B. Metodika fizicheskogo vospitaniya s osnovami teorii. Uchebnoe posobie. Moskva, «Prosveshenie», 1991.
34. Nazarenko L.D. Obshaya xarakteristika fizicheskix kachestv, V kn. «Ozdorovitel'nie osnovi fizicheskix uprajneniy, M., 2002 g., 73-78 s.
35. Ponkrat'eva O.V. Fizicheskie predposilki modelirovaniya fizicheskix uprajneniy v rejime detey doshkol'nogo vozrasta, (Nauchno- metodicheskie rekomendatsii), Tashkent, 1991 g., 10-18 s.
36. Rixsieva A.A., Nasriddinov F.N., Rixsiev A.I. Fizicheskoe sostoyanie shkol'nikov i sportivnoy molodeji. – T.: Ibn Sin, 1992.-152s.
37. Usmonxodjaev T., Xujaev A. Harakatli o`yinlar, 1992, B.3-4.
38. Usmonxodjaev T.S. Nauchno-pedagogicheskie osnovi fizicheskogo sovershenstvovaniya detey v svyazi s ix dvigatel'noy aktivnost'yu. Avtoref.diss. ...dok.ped.nauk. – Tashkent, 1995. – 49s.
39. Filin V.P., Folin N.A. Teoriya i metodika yunosheskogo sporta. Moskva, 1987.
40. El'konin D.B. Psixologiya igri fizkul'tura i sport. M., 1978 g., 180 s.
41. Yakovlev V.G. Osnovnie ponyatie V kn. Podvijnie igri, Fizkul'tura i sport, M., 1974 g., 4-8 s.

MUNDARIJA

Kirish	3
I BOB. MUAMMONING O'RGANILGANLIK DARAJASI	9
1.1. Yosh voleybolchilarni tarbiyalashda taktik tayyorgarlikning mohiyati, mazmuni va xususiyatlari	9
1.2. Yosh voleybolchilar o'yin taktikasi va uning tasnifi	14
1.2.1. Hujum taktikasi	16
1.2.2. himoya taktikasi	23
1.3. Yosh voleybolchilarni o'yin taktikasiga o'rgatish	28
1.3.1. Hujumda qo'llaniladigan yakka taktik harakatlarga o'rgatish	28
1.3.2. Hujumda ijro etiladigan guruhli taktik harakatlarga o'rgatish	32
1.3.3. Hujumda qo'llaniladigan jamoa taktik harakatlariga o'rgatish	34
1.3.4. Himoyada qo'llaniladigan yakka taktik harakatlarga o'rgatish	35
1.3.5. Guruhli taktik harakatlarga o'rgatish	37
1.3.6. Jamoa taktik harakatlariga o'rgatish	39
1.4. Voleybolda – strategiya va taktika	43
1.4.1. Strategiya va taktika haqida tushuncha	43
1.4.2. Zamonaviy voleybolda qo'llaniladigan atamalar	44
1.4.3. Taktikaning psixofiziologik va strategik mohiyati	45
1.4.4. Strategik reja va sport razvedkasi	46
1.4.5. O'yinchining o'yin ixtisosligi va jamoa taktikasini tuzish	47
1.4.6. O'yin faoliyatida sardorning ahamiyati	48
II BOB. TADQIQOTNING VAZIFALARI, USLUBIYATI, PEDAGOGIK TAJRIBANING MAZMUNI VA TASHKIL QILISH TARTIBI	50
2.1. Tadqiqotning maqsadi	50
2.2. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi	50
2.3. Tadqiqot uslublari	50
2.4. Pedagogik tajribaning mazmuni va o'tkazish tartibi	51
III BOB. TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNI TAXLILI	54
3.1. Taktik tayyorgarlikni shakllantirishda harakatli o'yinlardan foydalanish samaradorligi voleybol murabbiylari nigohida	54
3.2. To'p uzatish taktikasini shakllantirishda harakatli o'yinlardan foydalanish samaradorligi	57
3.3. Zarba berish taktikasini shakllantirishda harakatli o'yinlardan foydalanish samaradorligi	59
Xulosa va amaliy-uslubiy tavsiyalar	61
Adabiyotlar	62